

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:4 (67065)  
2016-yil  
25-yanvar

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

## Poytaxtimizdagi «Istiqlol» san'at saroyida



### Respublika bolalar ijodiyoti festivali g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi



Yurtimizda har yili an'anaviy tarzda turli ijodiy loyihalar, san'at bayramlari va festivallarning o'tkazilishi yangidan yangi iste'dodlarni kashf etmoqda. Mazkur loyihalardan biri – «Kamalak yulduzlari» festivali musiqa va san'at, maktabdan tashqari ta'limni yanada rivojlantirish, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga, ularning o'z oldiga qo'ygan yuksak maqsadlari yo'lida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

(Davomi 2-betda)

## QALBLAR ZIYOGA TO'LDI

### Kitob olami

Bolaligimdan kitob o'qishni juda yaxshi ko'raman. Otam har yili tug'ilgan kunimda menga kitob sovg'a qilar, bu esa qalbimni quvonchga to'ldirardi. Ayniqsa, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Mark Tven, Janni Rodari kabi yozuvchilarning asarlarini o'qiganimda, go'yo o'zimni ertaklar olamiga tushib qolgandek sezardim.

Kuni kecha poytaxtimizdagi «Kitob olami» savdo majmuasida bo'lganimda, kitobning sehrli kuchini yana bir bor his etgandek bo'ldim. Markaziy Osiyodagi eng katta kitob supermarketi bo'lgan ushbu majmuada ayni paytda 21 ta bo'lim mavjud bo'lib, O'zbekiston va xorij nashriyotlarining 60 mingdan ziyod kitobi savdoga chiqarilgan. E'tiborlisi, markazda bolalar uchun ham alohida zal tashkil qilingan. Undagi kitoblarning aksariyatini esa o'quvchilar o'zbek tilida o'qishlari mumkin.

(Davomi 2-betda)



– Men poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabining 4-«J» sinfida tahsil olaman, – deydi Xadicha Hazratqulova.  
– Kitob do'koni ochilgani haqida eshitib, rosa quvongandim. Opam bilan bu yerga kelib, kitoblarning ko'pligidan hayratlandik va bir olam taassurotlar oldik. Kelajakda ustozim Karima Shorahimovaga o'xshab, o'qituvchilik kasbini tanlamoqchiman. Buning uchun ko'p kitob o'qishim, o'z ustimda tinimsiz izlanishim zarur.

**"KAMALAK" yulduzlar**

**(Davomi. Boshi 1-betda)**

Respublikamiz ta'lim maskanlarida bilim olayotgan 6 – 14 yoshdagi 60 mingdan ziyod iste'dod egalari barcha bosqichlarda bor mahoratlarini namoyish etishdi. Saralash bosqichida ijodkorlarning mumtoz va milliy musiqa cholg'ulari ijrochiligi, an'anaviy va akademik xonandalik, xoreografiya, tasviriy va amaliy san'at, nasr va nazm yo'nalishidagi iqtidorlari el suygan san'atkor va ijodkorlardan iborat hay'at a'zolari tomonidan baholandi.

– Men «Kamalak yulduzlar» tanlovida g'oliblar safidan o'rin olganimdan xursandman, – deydi Jizzax tumanidagi 13-umumta'lim maktabi o'quvchisi Dildora Asrorova. – Barcha tengdoshlarim ham turli tanlovlarda qo'shiqlar uzoq davom etdi.



ishtirok etib, g'olib bo'lishlarini istayman. Buning uchun esa yanada ko'proq izlanish, o'qib-o'rganish muhimligini ham unutmash zarur. Men tumanimizdagi 3-bolalar musiqa va san'at maktabida raqs sirlarini o'rganmoqdaman.

Ishirokchilar tanlov doirasida mohir rassom va haykaltaroshlar, usta-hunarmandlar, san'atshunoslar, shoir va yozuvchilar ishtirokida mahorat saboqlaridan ham bahramand bo'lishdi. Ayniqsa, yosh iste'dodlar uchun Mustaqillik maydoni, O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeylariga uyushtirilgan sayohatlar katta taassurot qoldirdi.

Iste'dodlarni taqdirlashga bag'ishlangan tadbirda festivalning turli nominatsiyalari bo'yicha g'oliblarga diplom va sovg'alar topshirildi. Yosh estrada xonandalari hamda bolajonlar ishtirokidagi Gala-konsertda jonajon O'zbekistonimizdagi tinchlik va baxtiorlikni tarannum etuvchi kuy-

**QALBLAR ZIYOGA TO'LDI**

**(Davomi. Boshi 1-betda)**

Savdo majmuasi ochilgandan buyon taniqli shoir va yozuvchilar,



olimlar, el suygan san'atkorlar ishtirokida davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etib kelinmoqda. Bu esa kitobxonlarga alam-alam zavq ulashayotir.

– Ertak kitoblarini o'qish, jon-u dilim, – deydi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 51-umumta'lim maktabining 2-«G» sinf o'quvchisi Muslima Ibragimova. – Bugun «O'zbek xalq ertaklari» kitobini sotib oldim. Endi uni o'qib, taassurotlarimni dugonalarimga ham aytib bermoqchiman.

**A z i z o'quvchilar, Sizda ham ushbu markazga borish ishtiyoqi tug'ilgan bo'lsa, bundan bag'oyat xursandmiz. Unda vaqtini qo'ldan boy bermay, ustozlaringiz yoki ota-onangiz bilan birga, «Kitob olami» do'koniga tashrif buyuring. Ishoning, bu yerda olgan**

taassurotlaringiz Sizga uzoq vaqt hamroh bo'ladi.

**Sa'dullo TURSINOV**



**ROSTGO'YLIKNING BAHOSI**



Buyuk bobomiz asarlariga qayta-qayta murojaat qilish o'quvchiga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Keling, ushbu hikoyatni birgalikda o'qiyamiz.

Yoshligidan ilm-u ma'rifatni egallashga bel bog'lagan Abdulqodir Jiloniy onas qoshiga kelib, ilm yo'lida safar qilishga ijozat so'raydi. Alloma bu voqeani shunday xotirlaydi:

Onam rosa yig'ladi. So'ngra turib, sakson oltin keltirdi va dedi:

Menga ota merosidan bu qolibdir...  
Yarmini qardoshim uchun olib qoldi. Mening ulushimni to'nimga tikdi. Va menga qasam berdiki, har qanday holatda ham to'g'ri so'zli bo'l. So'ng men bilan vidolashdi. Men kichik bir karvon bilan Bag'dodga yo'l oldim. Hamadondan o'tganimizda, oltin otlar qaroqchi karvonimiz yo'lini to'sdi. Menga avvaliga hech kim e'tibor bermadi. Nogoh biroq yonimga keldi va dedi:

- Nimang bor?
- Qirq oltin.
- Qani?
- To'nimga tikilgan.

U masxara qilyapti, deb o'yiladi-da, mendan uzoqlashdi. Va boshqa birovni keldi. U ham meni so'roqqa tutdi va yana o'sha javobni eshitdi. Ikkalasi o'z boshliqlari huzuriga borib, mendan eshitganlarini aytishdi. Qaroqchilar boshlig'i meni chaqirib, yana so'roqqa tutdi. Men o'sha javobni takrorladim. Boshqalar bir tepalik ustida o'tirib, karvonning molini taqsimladilar. Boshlig' hukmi bilan to'nimni so'kdilar va oltinlarni chiqardilar. Sanagan edilar, aytganimdek qirq tillo chiqdi. U hayron bo'lib so'radiki, bunday e'tirof qilmoqqa nima bois bo'ldi?

Dedim:  
– Onam menga hamisha rost so'zlamoqni o'rgatgan! Men onamga bergan ahdirga xiyonat qilmadim.

Qaroqchilar boshlig'i so'zlarimni eshitib yig'ladi. Va dediki, men necha yillardurki, Yaratganning ahdiga xiyonat qilibmen. Va qilayotgan ishlaridan pushaymon bo'lib, tavba qildi. Bu holdan ta'sirlangan uning sheriklari ham tavba qilishdi. Karvon ahldan tortib olgan narsalarni qaytarib berdilar. Ular mening nazdimda to'g'ri so'z tufayli tavba qilgan ilk qaroqchilar edilar.

**Yusuf ABDULLAYEV**

**O'ZBEKISTON — UMUMIY UYIMIZ!**

**Bu jumla yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir millat va elatlarning umumiy shoriga aylangan.**

Ko'pmillatli xalqimiz bag'rikengligi, mehmondo'stligi bilan butun dunyoga tanilib ulgurgan. Sizlarni qardosh millat vakillarining urf-odatlari, qadriyatlarini, tarixi qiziqtiradimi? Bugun bu mavzuga bejizga to'xtalmadik. Boisi, 24-yanvar kuni Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil topgan kun keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Respublika baynalmilal madaniyat markazi direktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Nasriddin MUHAMMADIYEV bilan bo'lgan suhbatimiz markazning bugungi kuni, o'tkazilayotgan tadbirlar haqida kechdi:

– Markazimizning asosiy vazifasi millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, har bir millatning o'ziga xos urf-odat va an'analarni saqlab qolishga ko'maklashishdan iborat.

Shuni aytish joizki, ayni paytda mamlakatimizda o'rta va oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlari 7 tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tillarida olib boriladi. Aksariyat madaniyat markazlarida yakshanba



kungi maktablar va to'garaklar faoliyat yuritadi. Unda o'sha millat vakillarining ona tili va boshqa tillar, madaniyati, tarixi, san'ati, milliy an'analari o'rgatiladi.

Masalaning yana bir e'tibori jihat, milliy-madaniy markazlarning ezgu sa'y-harakatlari tufayli yurtimizdagi aksariyat xalqlarning azaliy rasm-rusumlari, hosil va gul bayramlari qayta tiklandi. Jumladan, ruslarning Maslennitsa, gruzinlarning Rtveli, chinlarning Chunsze, koreyslarning Ovol-Tano va Sollar, uyg'urlarning Sayil

bolgarlarning Martinitza singari ayyomlari har yili uzluksiz nishonlanadigan bo'ldi. Bu muayyan millatning o'ziga xos milliy madaniyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, yoshlarimizni jamiki xalqar madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etyapti.

O'zaro totuvlik va do'stlik, bag'rikenglik, insonparvarlik tamoyillari barqaror go'shadagina inson erkin-yashaydi, har qanday orzusiga erishadi. Tinchlikning qadriga yetish hamda turli millat va elatlar vakillari bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashayotgan Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, barchamizning muqaddas burchimizdir.

**Ozoda TURSUNBOYEVA yozib oldi**

# «BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG» tanloviga

Respublikamizda iste'dodli, intiluvchan, a'lochi va tashabbuskor o'quvchilar juda ko'p. Buni tahririyatimizga yo'llayotgan maktublarigizdagi fikr-mulohazalarigiz, she'r-u hikoyalaringiz, chizgan rasmlaringizdan ham bilish mumkin. Ayniqsa, «Boylikni bolalikdan asrang» nomli tanlovimizdagi faol ishtirokingiz, bizni behad quvontirmoqda.

Quyida tengdoshlaringizning tabiiy boyliklarimiz haqidagi o'rinni mulohazalarini o'qishingiz mumkin. O'ylaymizki, ushbu fikrlar Sizni ham befarq qoldirmaydi.

## HALI YOSH BO'LSAK-DA, katta ishlarga qodirmiz



**Yorug'lik haqida hech o'ylab ko'rgan-misiz?! Bugun kechqurun dars tayyorlab, beixtiyor shu borada o'ylab qoldim. Yorug'lik, nima u? U inson hayotida qanday o'rin tutadi? Shu haqda dadamdan so'ragandim, ular biroz o'ylanib turdilar-da, shunday javob berdilar:**

Sen nega yorug'lik haqida o'ylab qolganingni bilmadim-u qizim, lekin bu tushunchani anglashga intilayotganing meni xursand qilyapti. Albatta, bu juda keng tushuncha! Inson hayotini yorug'liksiz tasavvur eta olmaydi. O'zing o'yla, Quyoshsiz yashab bo'ladimi? Hatto Oying, yulduzlarning go'zalligida ham Quyoshdan taralayotgan yorug'lik, nur mujassam. Insoniyat

etilganiga hali u qadar ko'p bo'lmagan. Shu haqda o'ylaganda bugun elektr-energiyasi hayotimizga yengillik olib kirganini anglaymiz.

Bugun kechki payt uyimizdagi chiroqlarni yoqqanda, muzlatkichda saqlanib turgan mevalarni olayotganda yoki kir yuvish mashinasida top-toza bo'lgan kiyimlarimga dazmol bosayotganimga, kechki ovqatdan keyin televizor ko'rayotganimga yorug'lik haqida, elektr-energiyasi haqida o'yladim. Agar insoniyat uni kashf etmaganida, nima bo'lardi?

Qarangki, biz qanchalar katta boylikka egamiz. Doim ham uning qadrini, ahamiyatini his qilavermaymiz. Aslida, elektr-energiyasi tabiatda, undagi jism va moddalar tarkibida ming yillar davomida ham mavjud bo'lgan. Insoniyat qalbidagi yorug'lik – bilim, aql-idrok orqali uni ajratib olishni, undan samarali foydalanishni o'rgangan. Hozirda, bir kunimizni, hatto lahzamizni ham usiz tasavvur qila olmaymiz. Elektr-energiyasi yordamida qanchadan-qancha og'irimiz yengil bo'ladi.

Ko'sh, hayotimizda elektr-energiyasini shunday katta o'rni bor ekan, biz bu bebaho boylikdan qanday foydalanyapmiz? Qo'shni xonaga chiqib televizor ko'radigan bo'lsak, boshqa xonalardagi chiroqlarni o'chirib qo'yyapmizmi? Agar ortiqcha chiroqlarni o'chirib yursak, bir tomondan mamlakatimiz boyligiga hissa qo'shgan, ikkinchi tomondan esa oilamiz budjetiga yordam qilgan bo'lamiz.

**Anora HOJIMATOVA,**

*Toshkent shahar, S.Sirojiddinov nomidagi akademik litsey o'quvchisi*

## OQIB TURGAN SUVGA jo'mrak o'rnatildi

Bir kuni darsda tabiatni muhofaza qilish, ayniqsa, ichimlik suvini tejab ishlatish haqida gap bordi. Shunda eshigimiz yonida doim oqib turadigan mahalladagi foydalanadigan toza ichimlik suvi ko'z oldimga keldi.



– Suvning har tomchisi –

ne'mat. Uning isrof bo'lishiga yo'l

qo'ymasligimiz kerak, – deb ta'kidladi ustozimiz dars yakunida.

Demak, o'sha biz har kuni chelaklarni to'ldirib oladigan suv isrof

bo'layotgan ekan-da, deb o'yladim. Uygay qaytgach, bu haqda ota-

onamga aytdim.

– Qizim, yaxshi eslatding, shu suvga jo'mrak o'rnatish xayolimdan

ko'tarilibdi. Uni hoziroq o'rnatganim bo'lsin, – deb otam suv quvuriga jo'mrak o'rnatib qo'ydi.

Doim oqib turadigan suv berkitilib, ko'nglimiz xotirjam bo'ldi. Endi kerakli paytda murvatni

burab, zarur bo'lgandagina suv oladigan bo'ldik.

**Munisaxon G'ULOMOVA,**

*Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 4-«D» sinf o'quvchisi*

## UMMON OLDIDA BO'LSANG HAM BIR TOMCHI SUVNI ISROF QILMA

Dunyodagi barcha tirik mavjudotlar uchun eng zarur bo'lgan boyliklardan biri bu suvdur. Sayyoramizning eng ko'p qismini ushbu obihayot tashkil etsa-da, bugun dunyoning aksariyat mamlakatlari aholisi toza ichimlik suvi taqchilligidan aziyat chekmoqda.

Afsuski, ba'zi tengdoshlarim bu bebaho boylikning qadriga yetmay, eng yomon illatlardan biri – isrofgarchilikka yo'l qo'ymoqdalar. Bu millatimiz uchun umuman yot tushunchadir. Chunki, qadimdan ota-bobolarimiz suvga chiqindi tashlama, tuflama, deya uqirib kelgan.

Xalqimizda

«Ummon oldida

bo'lsang ham bir tomchi

suvni isrof qilma», degan

ajoyib naql bor. Bu asrlar osha

sayqal topgan benazir fikr, desak mubolag'a

bo'lmaydi. Biz ushbu hikmatga amal qilib

yashasak, albatta, turmushimiz farovonligi,

hayotimiz jozibasi ortib boradi.

Aziz do'stlar, suv — hayot manbai. Shunday ekan, kelinglar,

bu boylikni bolalikdan asraylik!



**Shohrux USMONOV,**

*Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi*

## ORZULAR QANOTIDAGI PARVOZ

**Dilnoza ATOYEVA** – O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi **S. Sirojiddinov** nomidagi akademik litseyning ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi 1-bosqich o'quvchisi. O'tgan yil Dilnozaning hayoti muvaffaqiyatlarga boy, sermahsul bo'ldi. «Kitob bizni birlashtiradi» respublika festivalida faol kitobxon sifatida faxriy yorliq, «Bolalar qo'shiqlari, she'rlari va kuylarini yaratish bo'yicha respublika ijodiy tanlovi»ning shahar bosqichida 1-darajali diplom bilan taqdirlanib, respublika bosqichida munosib ishtirok etdi.

Shuningdek, Zulfiyaxonim tavalludining 100 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ko'rik-tanloving shahar bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib, 1-darajali diplom bilan taqdirlanib.

– Erishgan yutuqlarimda kitobning o'rmi beqiyos, – deydi u

biz bilan suhbatda. – Eng yaxshi ko'rgan mashg'ulotim badiiy adabiyotlar o'qish. Ko'proq nasriy asarlar, ayniqsa, fantastik, sarguzasht kitoblarni sevib o'qiyman. Muhammad Yusuf, Mahmud Toir, Sirojiddin Sayyid, Farida Afro'z kabi shoirlar ijodi meni o'ziga maftun etadi.

Ikki ustozim – onam Dilsora Narziyeva. Maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars berish bilan birga, «Nazm gulshani» to'gariga rahbarlik qiladilar.

Ijodkor qizning «Orzular ummoni» va «Umid belan-



chagi» nomli kitoblari nashr etilgan.

Dilnozaning «Akvariumdagi baliqlar» deb nomlangan ilk she'ri u 5-sinfda o'qib yurgan chog'lari chop etilgan. Dilnozada chet tillarni o'rganishga ham ishtiyoq baland. Buyuk bobomiz Alisher Navoiyning ingliz tiliga o'g'irilgan qator g'azallarini yod olgan.

Kelgusida jurnalist bo'lish orzusidagi qizimizning g'ayrat-shijoatiga havasimiz keldi. U sportning suzish turi bilan shug'ullanish bilan birga, pazandachilikka ham qiziqar ekan. Ustozlaridan turli pishiriq, salat, o'zbek milliy va Yevropa taomlarini qunt bilan o'rganib, yaqinlarini xushnud etayotganini bilib, o'qish va hunarni barobar egallab borayotgan yosh iqtidor egasiga «Barakalla, Dilnoza!» degimiz keldi.

**Dilrom HOTAMOVA**



Farg'ona shahridagi Muruvvat uyi qayta ta'mirlanib, qo'shimcha o'quv va yotoqxonona binosi, suzish havzasi, kino zali, sog'lomlashtirish xonalari, futbol maydoni qurilib, foydalanishga topshirildi.

## HECH KIM MEHR-E'TIBORDAN CHETDA EMAS

Shuningdek, bu yerda isitish tizimi, dam olish joylari yangidan bunyod etilib, zamonaviy mebellar bilan ta'minlandi. Unda tarbiyalanayotgan 200 nafardan ziyod imkoniyat cheklangan bolalarni kamol topishlari uchun barcha qulayliklar yaratildi. Ularga malakali o'qituvchilar, tarbiyachilar va enagalar tomonidan ta'lim-tarbiya berilmoqda.

Yaqinda bu yerda mutasaddi tashkilotlar tashabbusi bilan «Hech kim mehr-e'tibordan chetda emas» shiori ostida xayriya tadbiri bo'lib o'tdi. Tarbiyalanuvchilarga turli xildagi sovg'alar taqdim etildi.

**Muhammadjon MAHMUDOV,**  
Farg'ona shahri

## RANGLARNING NURLI JILOSI

San'at insonga go'zallik, shodlik, zavq ulashadi. Shuningdek, Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini oshiradi.



G'allaorol tumanidagi 27-umumta'lim maktabida tasviriy san'at va haykaltaroshlik to'garaklari faoliyat yuritadi. To'garak a'zolarining ijodiy ishlari maktabda tashkil etilgan «Tengdoshlarim ijodi» ko'rgazmasida muntazam berib boriladi.

Tajribali pedagog Nilufar Mirzakarimova rahbarligidagi to'garakda 26 nafar o'quvchi shug'ullanadi. O'quvchilar o'zbek milliy tasviriy san'atini yuksak pog'onalarga ko'tarishda katta xizmat ko'rsatgan Chingiz Ahmarov, O'rol Tansiqboyev, Abdulhaq Abdullayev kabi taniqli musavvirlar asarlari bilan tanishib bormoqdalar. Ayniqsa, Sharq musavvirlik san'atida yorqin yulduz bo'lib porlagan alloma Kamoliddin Behzod asarlarida tabiatning jonli tasvirlanishi ularda boy taassurot uyg'otmoqda.

Maktabda muhim sanalarga atab doimiy ravishda ko'rik-tanlovlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga «Hayotimiz Qomusi» mavzusida 120 dan ziyod rasmlar qo'yilgan ko'rgazmaning tashkil etilishi ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi.

To'garak a'zolaridan Mahliyo Olimova, Samandar Sodiqov va Asad Hamdamov ko'plab tanlovlarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

Maskanda muntazam chiqib turadigan «Na'matak», «Qizlar ovozi», «Yosh kuch» kabi devoriy gazetalarining ko'rkam, rang-barang chiqishida yosh musavvirlarning xizmati katta bo'lmoqda. Yaqinda to'garakda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli musavvir Temur Sa'dullayev bilan bo'lgan uchrashuv ijodkor o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

**Abdulla SAIDOV,**  
Jizzax viloyati

## BEG'UBOR DAMLAR

Qo'ng'iroq chalinib, bolajonlar sinfga birin-ketin kirib kelishdi. Ustoz tasviriy san'at darsini boshlashdan avval o'quvchilardan yod olgan she'r va maqollarni aytib berishni so'radi.

## SHUKUHI

«Yetti o'lchab, tasavvuridagi quyoshni mustaqil tarzda bir kes», — biyron tasvirlashi kerak.

so'zlaydi  
Fazliddin.

«Sanamay sakkiz dema», —

davom ettiradi

Xurshida. «Ilm — oltindan qimmat», «Ko'p o'qigan — ko'p bilan», — ikki maqolni ketma-ket aytadi Odinabonu. Ustoz bu maqollar mazmunini tushuntirib berdi.

Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Muhayyo Anorboyeva tayyorlov guruhidagi har bir mashg'ulotni o'yin tarzida tashkillashtiradi. Bugungi tasviriy san'at darsida muallima o'quvchilarga quyosh rasmini chizishni topshirdi, ya'ni har bir bola qog'ozga o'z



## MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

Musaffo osmonimiz uzra bobo Quyosh zarrin nurlarini ona zaminga tortiq etayotgan bo'lsa ham qishning harorati sezilib turadi.

Diyorimizda hali ham bayram shukhi davom etmoqda. Yaqindagina 14-yanvar — Vatani himoyachilari kunini keng nishonladik. Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 212-umumta'lim maktabi o'quvchilari bu bayramni o'zgacha tarzda kutib oldilar.



Maskandagi «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni» deb nomlangan bayram tadbiri Vatani himoyachilari kuniga bag'ishlangandi. Uni maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Fazilat Saidrametova,

boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shahlo Otaboyeva hamda Marina Salamatinalar tashkillashtirishdi. Tadbirda «O'rta masjid» mahallasining raisi va faollari, harbiy xizmat faxriylari ham mehmon bo'lishdi. Dastlab maktab rahbari Raisa Abdullayeva maktabning ilg'or o'quvchilari, bo'lib o'tgan «Umid nihollari» musobaqalarining tuman bo'yicha g'oliblari, «Bilimlar bellashuvi» hamda fan olimpiadalari sovrindorlarini faxriy yorliqlar bilan taqdirledi.

Qizg'in bayram tadbiri o'quvchilar tomonidan tayyorlangan ajoyib kuy-qo'shiq va raqslar bilan yanada yorqin tus oldi. Ayniqsa, 4-sinf o'quvchilari tomonidan namoyish etilgan «Vatan bayrog'i» nomli badiiy kompozitsiya raqsi va «Harbiy qasamyod» sahna ko'rinishlari barchani birdek to'kizlantirib yubordi.

**Bekmurod ABDURAIMOV**

## SOG'LIGIMIZ O'Z QO'LIMIZDA

2016-yilning «Sog'lom ona va bola yili» deb atalishi ayni muddabo'ldi. Zero, yurtimizda onalar sog' bo'lsa, albatta, farzandlariga e'tibor bilan qarab, ular haqida qayg'uradilar.

Hozirgi kunda Afrika mamlakatlari OIV va OITS kasalligi ko'plab uchraydi. Afsuski, bu kasallikka chalingan bemorlarni yurtimizda ham uchrashi achinarli hol.

Yaqinda Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi, OITSga qarshi kurash Markazi bilan hamkorlikda shu mavzu yuzasidan seminar tashkil etildi. Unda OITSga qarshi kurash Markazi yetakchi mutaxassisi Habibullo Ashurov OIV infeksiyasi, OITS oqibatlari haqida yetarlicha ma'lumotlar berdi.

Faraz qiling, tishingiz og'rib, shifokorga borishga to'g'ri keladi. U yerda siz shifokor qanday shpritsdan foydalanayotganiga razm soling. Tibbiyot uskunalariga maxsus ishlov berilganiga e'tibor bering. Bu bilan Siz, avvalo, o'z huquqingizdan foydalangan bo'lib, yuqumli kasalliklardan o'zingizni muhofazalagan bo'lasiz.

Jamoat transportidan foydalanib, ko'chadan keldingiz. Albatta, uyga kirganingizda yuz-qo'lingizni sovuqlab yuvib, keyin dasturxon atrofiga o'tirishni unutmang. Doimo shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilib boring.

Aziz bolajonlar! Qanchadan-qancha umrlar zavoliga aylanayotgan OITS va OIV kabi asr kasalliklaridan, giyohvandlikdan o'zingizni, yaqinlaringizni asrang. Kuch-g'ayratingiz, bilim va tafakkuringizni ezgulik yo'lida sarflang. Eng asosiysi, mamlakatimiz kelajagi sizlarning qo'lingizda ekanligini aslo unutmang.

**Manzura UBAYDULLAYEVA**

— Bugungi davr o'quvchilarining keng dunyoqarashi pedagogdan yanada ko'proq izlanishni talab etadi. Shu bois, tayyorlov guruhlari uchun ajratilgan rejadagi 160 soatni yangi o'yin-mashg'ulotlar bilan boyitishga harakat qilaman, — deydi Muhayyo opa.

Sinfidagi 22 nafar o'g'il-qizga haraklatli o'yinlar, nutq o'stirish va musiqiy dam olish mashqlari, husnixat elementlari, ilk matematik tushunchalar, tasviriy san'at va mehnat ta'limidan saboq berayotgan ustoz har kuni o'quvchilarga yangi erak aytib beradi. Endi o'quvchilar turli o'yin usullari orqali erak qahramonlarini salbiy va ijobiy obrazlarga bemaol ajrata oladi.

— Kelgusi darsimizda rangli qog'ozlardan turli shakllar qirqib, yopishtirishni o'rganamiz, — deya darsni yakunladi ustoz.

**NURBEK**

Aziz tengdoshlar, bugun sizlarga tanishtiradigan iqtidorli o'quvchi - Iqbolxon Muhammedova xuddi siz qatori bo'sh vaqtlarini besamar ketishiga aslo yo'l qo'ymaydi.

# Iqbolxonning istiqboli

kitabini o'qib tugatdim. Ayniqsa, menga «Muqbil toshotar» ertagi juda yoqdi. U juda qaysar va cho'rtkesar bo'lsa-da, insonparvar, mehnatkash inson. Mana shu xislatlari orqali xalq orasida mehr-muhabbatga, obro'-e'tiborga erishadi.

Iqbolxon ingliz tilini puxta o'rganishga ham astoydil kirishgan.

Ha-ya, aytmoqchi, u buvisi Muborak aya haqida ham to'lib-toshib gapirdi. Buvisining maslahatlari tufayli juda ko'p yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, buning uchun ulardan minnatdorligini aytib o'tdi. Istiqboli porloq bo'lgan Iqbolxonga o'qishlarida muvaffaqiyatlar, orzulari yo'lida omadlar tilaymiz.

**ODINA suhbatlashdi**



ZUBAYDA olgan surat


U poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 73-umumta'lim maktabining 4-«A» sinfida a'lo o'qish bilan birga, turli to'garaklarga ham qatnashadi. U maktabda o'tkaziladigan har bir tadbir mavzusiga oid she'rlarni yod oladi, uning ko'ngildagidek o'tishiga o'z hissasini qo'shadi. Har ishda o'zini ko'rsata oladigan bu tengdoshingizning rasmlar chizishga, to'qishga ishtiyoqi baland. U Iroda, Nilufar, Sarvinoz, Nasiba singari dugonalari qatorida hamma fanlarni a'loiga o'zlashtiradi.

– Men yana eretaklar o'qishga juda qiziqaman – deydi tengdoshingiz. Yaqinda «O'zbek xalq eretaklari»

## Lesson 71

### CROSSWORD

Find the colours and fill the boxes.



Madina MAMADINOVA, the pupil of 3rd year in «Fergana» agriculture collage in Sirdarya region

*Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!*

### LOST MITTEN

(Yo'qolgan qo'lqop)

Dad frost lost his mitten and went to search it. He thinks may be birds found it. He looked near the fir tree and river. He glanced there and here didn't see the mitten. Then he asked from the wolf:

– Hey, Grey, don't you steal up my mitten? If you took give me soon?

– Which one is warm? – asked wolf.

– Yes, yes, but it isn't warm, – said Dad frost. – Good, nice mitten and cold. It was made by white snow and sewed by ice needle!

– Ehh! – said wolf angrily. –

I'm cold without your mitten. If I found I wouldn't take it!

He glanced there and here – didn't find his mitten. Then asked from the rabbit:

– Hey, floppy-eared, don't you steal up my mitten?

– Is it warm? – asked rabbit and he was trembling from the cold weather.

– No! – said Dad frost. – it was excellent mitten and cold! It was made by white snow and sewed by ice needle.

– No, said rabbit. – I am cold without your mitten. I needn't such cold mitten!

– Dad frost was surprised: What is this? No one took my mitten and where is it? Oh, here it is.

– Lying for everybody in the river. Oh, it is very nice mitten made by white snow and sewed by ice needle and no one needs it.



### EXERCISE FOR RESOURCEFULS

(Topqirlik mashqi)

Dear pupils here you can see the definition of a word and you should find that word rightly.

A person, not a relative, who one knows and likes well. There any type of them like true, close, a boy and a girl.


Proverbs:

A ... in need is a ... indeed.

A ... to everybody is ... to nobody.

Who is this person?

mother, friend, father, brother.



### JOKES (Latifalar)

At the examination

Student: They gave me the questions that I didn't know. So I gave them answers they didn't know...

Singular or plural?

Teacher: – Is trousers singular or plural?

Pupil: – singular at the top, plural at the bottom.

Oydin RUSTAMOVA, English teacher of lyceum by Tashkent Islam university



### HOW MUCH DO YOU READ?

My clever friends check yourself and answer the questions.

1. Do you read very much?
2. How many hours a day do you study?
3. How many books have you ever read?
4. After you finishing a book, do you reread it?



### RIDDLES (Topishmoqlar)

It has a lot of needles, But you can't sew with them, When he is in dangers, Appeared a ball from him.

It jumps from branch to branch, Eats every day walnuts.

Kumush TURG'UNOVA, the pupil of school number 54 in Urta Chirchik district, Tashkent region

**TANIDI BIZNI JAHON**

«Sog'lom bola yili»da, Quvna, yayrab yuraman. Tengdoshlarim qatori, Minnatdormiz bir umr, Yurtga xizmat qilaman.

Cheksiz imkoniyatni, Yaratdingiz bizga Siz. Minnatdormiz bir umr, Osmon erur ko'nglimiz.

Ishonchingiz oqlaymiz, Rahmat, sizga bobojon. Bugun o'zbek yoshlarin, Tanidi butun jahon!

**Bibisora TOSHBOTIROVA,**  
Andijon viloyati,  
Buloqbooshi tumanidagi  
13-umumta'lim  
maktabining 5-sinf  
o'quvchisi



**MEHNAT DARS**

Bichish, tikish, to'qishni, O'rgatar mehnat darsi. Kimniki zo'r chiqqan deb, Jo'sh urar qizlar bahsi!

Kimdir bichar, kim tikar, Qizlar qo'li mehnatda. Kunlar ajoyib o'tar, Hunarmandlar izzatda.

**Elnuraxon QALANDAROVA,**  
Qoraqalpog'iston  
Respublikasi, Beruniy  
tumanidagi Yengil sanoat  
kasb-hunar kolleji o'quvchisi

**USTOZIM**

Ustoz, ilm bog'imsiz, Qalbindagi ziyosiz. Mehringiz misli daryo, Buloqday qaynar go'yo.

Ilm sari yo'llaysiz, Har bir ishda qo'llaysiz. Bo'lsin deya chin inson, Sira-sira tolmaysiz.

Bilimni olay, deymen. A'loga o'qiy, deymen, Ona, Vatan, Ustozni Qadrlash burchim, deymen.

**Parvina HASANOVA,**  
poytaxtimizning Olmazor  
tumanidagi 29-umumta'lim  
maktabining 5-«A» sinf  
o'quvchisi



**QORDA O'YNADIK**

Muzning ustida, Uchamiz chana. Tog'lar bag'rida, Zavqli-da, yana!

Chang'ida uchib, Qorda o'ynadik. Olamni chizib, She'rda so'yladik.

Olam bag'rida, O'ynash mazza-da. Qorbobo yasash, Zavqli yanada.

**Dilnoza TOG'AYEVA,**  
Samarqand viloyati,  
Paxtachi tumanidagi  
43-umumta'lim  
maktabining 8-sinf  
o'quvchisi



YOQUBBEK chizgan rasm

**BAXTIYOR BO'LARDIM**

Assalomu alaykum, hurmatli «Tong yulduzi!» Men sening sahifalaringda yoritiladigan barcha qiziqarli ertak, hikoya, she'r, boshqotirmalarni juda katta qiziqish bilan o'qiyman. Men ham bolalikdan she'rlar mashq qilaman. Ustozim Ra'noxon Usmonovadan she'riyat sirlarini o'rganyapman. Senga o'zim yozgan she'riy mashqlarimdan yubormoqdaman.

Agar she'rlarim gazeta yuzini ko'rsa, tengdoshlarim o'qib bahramand bo'lsa, juda xursand bo'lardim.

**QUYOSH KABI ILIQ MEHRINGIZ**

Ko'zlarimning nuri o'zingiz, Charaqlaydi ikki ko'zingiz. Yuraklarga darmon so'zingiz, Quyosh kabi iliq mehringiz.

Siz o'zingiz gulbahorimsiz, Alpomishim, nomus-orimsiz. Boringizga shukurlar qilay, Siz baxtimsiz, ilk bahorimsiz.



**Gulal G'AYRATJONOVA,**  
Farg'ona viloyati, Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi  
imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ixtisoslashtirilgan ta'lim  
muassasasining Beshariq bo'limi maktabining 9-sinf o'quvchisi

**G'AYRATI ICHIGA SIG'MAYDI**



Tengdoshingiz Abduvoris Turpov poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 26-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi. Uning bir zum bo'lsa-da, bo'sh yurganini ko'rmaysiz. Doimo rasm chizib o'tirganini yoki biror qiziqarli ertak kitobni mutolaa qilayotgan holda uchratasiz.

Abduvorisning chizgan rasmlari bizga ma'qul bo'ldi. Siz ham ko'rib, baho bering.

**Sayyora QAYUMOVA,**  
O'zDJTU qoshidagi  
3-akademik litsey o'quvchisi



Qish kelib, qor yog'di. Bolalar xursand. Ammo Sarvinoz... Mushugi sovuqda oyoqyalang ko'chada yuradimi? U o'ylay-o'ylay, chora topdi. Dugonasi Karimaning bobosi etikdo'z ekan. Buni buvisidan eshitdi. Karimani ko'ndirsa bo'ldi. Bobosi bilan o'zi gaplashadi. Bekorga uni «bulbuligo'yo qizalag'im» deyishmaydi.

– Etik tiktirmoqchi edim, – dedi Sarvinoz mushugi uchunligini yashirib.

– Etiging yangi-ku, – dedi Karima.

– E... Bir kuni yirtiladi. Oldindan tiktirsam sovuq qotmayman-da, – dedi Sarvinoz bilag'onligi jo'shib.

– O'zing bilasan.

Karima ortiqcha so'z aytishdan o'zini tiydi.

Darsdan so'ng qizaloqlar etikdo'z bobonikiga yo'l olishdi. Bobo bilan salomlashgach, Karima «Buvimni ko'raman», deb ichkari hovliga kirib ketdi. Sarvinoz esa ikkilanmasdan boboga murojaat qildi:

– Bobojon, Qoramosh mushugim bor. Unga etikcha tikib bersangiz, – dedi.



**ETIKCHA**  
(Hikoya)

– Nega mushugingga etik tiktirmoqchisan? – dedi etikdo'z bobo ajablanib.

– Hammayoq qor, sovuq yemasin...

– Mushuklar etik kiymaydi, sovuq ham yemaydi, qizim.

– «Etik kiygan mushuk» multfilmini ko'rmaganmisiz, bobojon?!

– Multfilm boshqa narsa. Seni mushuging esa boshqa.

– Puli yo'q deyapsizmi, bobojon? Ko'nglingizni to'q qilavering, dadamdan olib beraman, – dedi Sarvinoz.

Etikdo'z bobo qaysar qizga gap uqtirish bafoydaligini bilib, rozi bo'ldi.

– Qachon kelsam bo'ladi, bobojon?

– Uch kundan keyin...

Xullas, Sarvinoz mushugiga atalgan etikni oldi. Qoramosh esa etikni kiymay tixirlik qilaverdi. Nihoyat, buning yo'lini topdi.

Etikchani mushugining oyoqchasiga bog'lab qo'ydi...

Ertalab uyg'onsa, mushugining oyog'ida etikchasi yo'q. Biroq u bamaylixotir qorlarni kechib yuribdi. Shunda Sarvinoz beixtiyor etikdo'z boboning

gaplarini mushohada qilib, kulib yubordi.

**Mirzo AHAD, Buxoro viloyati**

Mamlakatimizda o'quvchi va talaba-yoshlarni birlashtiradigan, sport sohasida iste'dod egalarini kashf etish va doimiy rag'batlantirib borish imkonini beradigan uch bosqichli «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Unversiyada» musobaqalari muntazam o'tkazib kelinmoqda.

## UMID NIHOLLARI — 2016

tennisi, badiiy gimnastika, shaxmat, voleybol, futbol, yengil atletika, basketbol, dzyudo, qo'l to'pi, sport gimnastikasi, belbog'li va yunon-rum kurashlari bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Unda 5-umumta'lim maktabi o'quvchilari Behzod Zulpanov belbog'li, Z. Omonov esa yunon-rum kurashi bo'yicha o'z jamoalari shah'ini himoya qilishdi. Barcha turdagi musobaqalarda peshqadamlikni qo'ldan bermagan 5-umumta'lim maktabi jamoasi 1-, 16-umumta'lim maktabi jamoasi 2-, 1-umumta'lim maktabi jamoasi 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «...nimani o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymaylik, qanday

buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha oliyanob harakatlarimiz negizida, barcha ezgu-niyatlarimizning zamirida farzandlarimizni ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxt-u saodati, farvon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi mujassamdur», degan fikrlari barkamol avlodga qarata aytilgani ayni haqiqat, — deydi Arnasoy tuman Yoshlik JTSJ o'rinbosari Faxriddin Atabullayev.

Darhaqiqat, yurtimizda bolalar sportini rivojlantirish, yoshlarning sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ularning sportga bo'lgan ishtiyoqini oshirib, irodalarini toblashga xizmat qilmoqda.

Shukrulla G'ULOMOV



Arnasoy tumanida «Umid nihollari» sport musobaqasining hududiy bosqichi bo'lib o'tdi. Unda tumanning 21 ta umumta'lim maktabi o'quvchilari ishtirok etdi. Uch kun davom etgan musobaqada 1500 nafar o'smirlar sportning stol

ta'lim maktabi jamoasi 1-, 16-umumta'lim maktabi jamoasi 2-, 1-umumta'lim maktabi jamoasi 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «...nimani o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymaylik, qanday

Yaqinda Toshkent shahridagi Olimpiya zaxiralari kollejida yoshlar o'rtasida terma jamoa murabbiyi Komil Fatxullin sovrini uchun yunon-rum kurashi bo'yicha xalqaro turnir bo'lib o'tdi.

### G'ALABA — HAMYURLARIMIZDA!

O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston va Rossiya vakillari qatnashgan ushbu musobaqada hamyurtlarimiz munosib o'rinlarni egallashdi. Jumladan, 32 kg vaznda farg'onalik Ismoil Mahmudov 1-, Respublika olimpiya zaxiralari kolleji tarbiyalanuvchisi Asadbek Bahromov 2-, Toshkent viloyati vakili Husniddin Ravshanjonov 3-o'ringa loyiq topildi. 35 kg vazn toifasida ham Farg'onadan Abror Otoboyev 1-, buxorolik Amirbek Sultonov 2-, andijonlik Izzat Qodirov va Muhammadbobur Bobojonovlar 3-o'rinni egallashdi.

Shuningdek, 47 kg vazn toifasidagi kurashchilar o'rtasida Toshkent viloyatidan Doniyor Olimjonov 1-, andijonlik Timur Mallaboyev 2-, qashqadaryolik Asilbek Ne'matov va ROZKdan Abduvali Yo'ldoshev 3-o'rinni zabt etishdi.

Nozima JAVHAROVA

## JARQO'RG'ONLIK YOSHLAR ORZUSI

Jarqo'rg'on — polvonlar yurti. Bugun hududda yosh avlodning ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi, ular orasidan iqtidor egalarini kashf etish borasida qator ibratli ishlar amalga oshirilayotir.

Yaqinda tumandagi 46-umumta'lim maktabi qoshida yangi sport majmuasining qurilib, foydalanishga topshirilishi ham ana shu e'tiborning yuksak namunasidir.

Endilikda, yoshlar bu yerda futbol, voleybol, tennis, shaxmat-shashka, yengil atletika, taekvando kabi ko'plab sport turlari bo'yicha tashkil etilgan to'garaklarda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishmoqda.

— Maktabimizning sport zali ta'mirlab holga kelib qolgani bois, o'quvchilarimiz jismoniy tarbiya darsida nazariy bilimlar bilan cheklanib qolar edi. Bugun esa ular har qanday ob-havo sharoitida sport bilan shug'ullanish imkoniga ega. Qolaversa, majmuamiz yurtimizda ishlab chiqarilgan sport anjomlari bilan to'liq ta'minlangan, — deydi maktab direktori Abdurahmon Tangirov.

S. TURSINOV

## IMKONIYATLAR MASKANI

Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabi binosining rekonstruksiya qilinishi tuman yoshlari uchun ajoyib tuhfa bo'ldi.

Ayniqsa, maktabda 25 metr uzunlikdagi, 200 tomoshabinga mo'ljallangan yopiq zamonaviy suzish havzasi barpo etilishi endilikda, sportchilarning bu sohada ham mahoratlarini oshirish imkoniyatini yaratdi.

Tumanda joylashgan maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilaridan 500 nafari har kuni minifutbol, qo'l to'pi, basketbol, kurash va suzish turlari bo'yicha mashg'ulotlarda qatnashish imkoniga ega bo'ldi.

## «SOG'LOM ONA VA BOLA YILI»GA BAG'ISHLANDI

Qibray tumani, Baytqo'rg'on qishlog'idagi «Humo» bolalar va o'smirlar sport sog'lomlashtirish majmuasi 16–17-yanvar kunlari sportsevar muxlislar bilan gavjum bo'ldi. Boisi, bu yerda «2016-yil — Sog'lom ona va bola yili»ga bag'ishlab 2002–2004- hamda 2005–2007-yillarda tug'ilgan o'smirlar ishtirokida musobaqa o'tkazildi.

Dzyudo bellashuvlarida mezbonlardan tashqari Toshkent shahri, Qashqadaryo, Buxoro, Farg'ona viloyatlaridan tashrif buyurgan jami — 600ga yaqin yosh sportchilar o'z omadlarini sinab ko'rishdi.



Abdurasul Xudoyberganov boshchilik qilayotgan mazkur sport dargohi tarbiyalanuvchilarining keyingi vaqtlarda qayd etilgan natijalari tahsinga loyiq. Jumladan, o'tgan o'quv yili oraliq da sport maktabining 7 nafar tarbiyalanuvchisi mamlakat chempionati va O'zbekiston kubogida faxrli o'rinlarni egallashdi.

Jamoaviy tarzda o'tkazilgan musobaqada umumjamoa hisobida angrenliklar 1-, qo'qonliklar 2-, mezbonlar esa 3-o'rinni qo'lga kiritishdi.

Turnir yakunida 3-BO'SM ma'muriyati tomonidan ta'sis etilgan esdalik sovg'alari, medallar va diplomlar o'z egalariga topshirildi.

Shoh MUHAMMAD

## IXTIROLAR TARIXIDAN

Darvoqe, ixtirolar qanday yaratiladi? Bir qaraganda, bu savol g'atali roq tuyuladi. Axir ixtirolar ilmiy tajribalarda olimlar tomonidan igna bilan quduq qaziganday, yillab qilingan tinimsiz mehnat mahsul-i ku, dersiz?!

Ammo tarixdan ma'lumki, ba'zi bir ilmiy ixtirolar ham tasodifan topilgan.

Gazetamizning ushbu sonidan boshlab, Siz aziz mushtariylarimizga tasodiflar tufayli fanda va boshqa jabhalarda ochilgan ixtirolar hamda shu mavzudagi topilmalarga guvoh bo'lgan olimlar, turli insonlar hayotidan qiziq-qiziq voqealar bilan tanishtirib boramiz.



## TASODIF SABAB BO'LIB...

Shaffof plastmassa bilan yopishtirilgan ikki qavatli parchalanmaydigan organik shishaning ilk ixtirochisi 1879-1930-yillarda yashagan farang kimyogari Eduard Benediktus hisoblanadi.

Uning aytishicha, 1903-yilda o'zining Parijdagi shinamgina tajribaxonasida

ishlayotganida, javondagi bir litrli kolba nogahon tushib ketadi. Lekin buni qarangi, kutilganidek chil-chil bo'lgan kolbadan birorta siniq bo'lak ham uchib ketmaydi. Shisha yuzasida o'rgimchak ini tolasidek nursimon yoriqlar hosil bo'lgan bo'lsa-da, ular kolbaning shaklini buzmaydi, bu bo'laklarga bo'lingan shishalar qandaydir sehrlilik kuch ta'siridan hamon o'zaro bog'lanib turadi.

Shundan keyin kolbadagi yoriqli ko'p narsaga guvohlik berdi. Undagi yozuvga ko'ra, qachonlardir bu idishda erituvchilar aralashmasida nitrotsellyuloza (nitrokletchatka) saqlangan ekan. Biroq so'nggi vaqtlarda ochiq qolgan idishdagi erituvchilar uchib ketib, kolbada qolgan quruq qoldiq uning devorlarida yupqa parda qavat hosil qilgandi. Shunday qilib, tasodifan yuz bergan voqea sabab bo'lib, kimyo fanida yana bir ixtiro dunyoga keldi. Natijada, 1912-yilda Benediktus zavodda sinmaydigan shisha ishlab chiqarishni boshlab yuborgan edi.

Adham DAMIN



Pishiq ipdan to'qilar, Ko'nglimni ham to'q qilar. Sovuq kunda qalqonim, Boshimdagi...




## TEZ AYTISH

Chamanning chanasini Chorinikidan chiroylimi, Chorining chanasini Charosnikidan chiroylimi?

Dilfuza KAMOLJONOVA

## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR! METAGRAMMA

Metagramma so'z o'yini turi bo'lib, berilgan so'zning bitta harfi boshqa harf bilan almashtirib, boshqa ma'nodagi so'z hosil qilish orqali hal etiladi. Quyida berilgan to'rt harfli so'zlarning uchinchi harfini o'zgartiring va shaklga raqamli xonadan markaz tomon yozing.



1. Taft. 2. Olim. 3. Loja. 4. So'na. 5. Faol. 6. Asir. 7. Zira. 8. Taom. 9. Asil. 10. Noma. 11. Etak. 12. Metr. 13. O'rim. 14. Baxt. 15. Obid. 16. Sano. 17. Ko'ra. 18. Boks. 19. Satr. 20. Shoda. 21. Alif. 22. Mina. 23. Odam.

Endi shaklning aylanalaridagi harflarni soat mili yo'nalishi bo'yicha o'qish bilan o'zbek xalq maqolini bilib oling.

Tuzuvchi Foziljon ORIPOV

## ENG, ENG, ENG...



Gugurt ilk bora 1820-yilda kashf qilingan bo'lsa-da, dastlab u juda xavfli bo'lib, arzimagan ishqalanish oqibatida ham yonib ketishi mumkin bo'lgan.

Hozirgi ko'rinishdagi xavfsiz gugurt donachalari esa ilk marotaba 1855-yil Shvetsiyada ishlab chiqarilgan.

Kaspiy dengizi aslida, dunyodagi eng katta ko'l bo'lib, u 371 000 km<sup>2</sup> maydonni egallagan.



Dunyodagi eng baland sharshara Venesuelada bo'lib, u uchuvchi Jeyms Eynjel (Anxel) sharafiga Anxel sharsharasi deb ataladi. Uning balandligi 1054 metr.



AQSHning Arizona shtatida o'suvchi Saguro dunyodagi eng katta kaktus bo'lib, uning balandligi 24 metrga yetadi.

## Bilasizmi?!

Yapon olimlarining aniqlashlaricha, odamning tishlari qanchalik ko'p to'kilsa, xotirasi shunchalik pasayib borar ekan.



Burgutning bir qanotidan pat to'kilsa, muvozanatni saqlab turish uchun ikkinchi qanotidan ham xuddi o'shanday pat to'kilar ekan.



Jamolidin ABDULLAYEV tayyorladi

25-yanvar 2016

Bosh muharrir  
**Feruza ADILOVA**

**Tahrir Hay'ati:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Vahobjon RAJAPOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Feruza MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi  
**muharrir**  
Nodira  
NAZAROVA  
**Rassom**  
Feruza  
KAMOL o'g'li

**Manzilimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeksi: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
**Tel./faks: 244-63-08**  
**Tel./faks:**  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 45003  
Buyurtma - S 4979

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.